Mamarasulova Baxriniso Alisherovna

Qoraliyeva Sarvinoz Mahmud Qizi

Odinayeva Sevara Alisher Qizi

Ko‘charova Muhtarama Oltinboy Qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filollogiya va tillarni o‘qitish fakulteti talabalari

BOLALAR ADABIYOTI YANGI SHE’RIYATGA MUHTOJ

Annotatsiya: Inson umrining muammolardan yiroq davri —shubhasiz bolalikdir. Kattalar nigohida ahamiyatsiz narsalar, bolalar uchun cheksiz zavq-shavq berishi mumkin. Aynan shu davrda bolaning ongi shakllanib, kelajak uchun zarur bilimlarni egallaydi. Albatta bu onlar qiziqarli she’rlarga, qo‘shiqlarga boy bo‘lishi kerak. Ushbu maqolada, adabiyotimizda manfaatli o‘rinda turuvchi, bolalar she’riyatining hozirgi ahvoli va rivoji xususida so‘z yuritamiz. Oldin yaratilgan shoirlar ijodi bilan tanishib, shu asosda yechim izlaymiz.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoq, beg‘ubor nigohlar, elektron ekran, yechim.

Hozirgi o‘zbek adabiyotida turli janrga oid asarlar ko‘paymoqda. Kitobxonlarning talabiga ko‘ra yozilayotgan “kassabop” badiiy asarlarning anchayin qismini sevgi muhabbat mavzusidagi kitoblar egallaydi. Bunday asarlar o‘ziga xos muxlislarga ega.

Afsuski, hozirgi paytda bolalar adabiyotiga e’tibor susuygan. Aholi tomonidan talab bo‘lmaganidan keyin, yangi asarlar ham yozilmay qo‘ydi. Kelajagimiz egalarining dunyoqarashini o‘stirishda nimalarga asoslandik?. Kimlarni tanitdik va kimlarga nisbatan havas uyg‘otdik?. Ularning shirin tilida she’r o‘rniga bugun qanday so‘zlar aytilmoqda?. Ommaviy axborot vositalarining ta’siri sabab, bolalikning beg‘ubor yillari elektron ekranlar tomoshosiga band qilingan.

Ma’lum yillar oralig‘ida rivoj topgan bolalar adabiyoti bugun og‘ir sukunat ichida qolgan. Uni qayta tiklash uchun, mavjud bolalar shoirlari ijodini o‘rganishimiz va shu asosda yechim topishimiz darkor.

Hamid Olimjon, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Anvar Obidjon, Ilyos Muslim, Shukur Sa'dulla, hamda Po‘lat Mo‘minlar bolalar adabiyotida barakali ijod qilgan shoirlarimizdan. Quyida ularning ijodi haqida to‘xtalsak.

Hamid Olimjon xalqimizning milliy madaniyatiga asoslanib yozilgan „Oygul va Baxtiyor“, „Semurg‘ yoki Parizod va Bunyod“ she’riy ertaklari muallifidir.

Shoirning „Semurg‘“ dostoni ham ilhom bilan yozilgan asarlaridan biri hisoblanadi. Dostonda tasvirlanishicha, xonning qizi turmushga chiqish uchun shart qo‘yadi, uning shartini oddiy cho‘pon Bunyod bajaradi. Lekin qiz yigitning oddiy kishilardan ekanligini bilgach, unga turmushga chiqishni o‘ziga munosib ko‘rmaydi. Bunyodni yo‘qotish niyatida bahodir yigitni inson dushmani bo‘lmish yovuz dev bilan olishishga yuboradi. Devni yengib qaytsa, to‘yga rozi ekanligini aytib, ayyorlik qiladi. Afsonaviy qahramon Bunyod yaxshilikning ashaddiy dushmani, dahshatli devni yo‘qotishga otlanar ekan, bu mushkul ishni muvaffaqiyatli ado etish, zafar bilan qaytish nihoyatda xavfli ekanligini juda yaxshi his etadi. Lekin uning ruhida elga baxt bermoq hissi hukmron:

Odamlarga baxt bermoq,

Baxtlilarga gul termoq

Eldan shiorim bo‘ldi,

Nomus va orim bo‘ldi.

Bunyod ana shu yuksak ideali uchun ham kuchli va yengilmasdir. Mana shu oliyhimmat, shu yuksak insonparvarlik unga kuch-qudrat, yengilmaslik, qahramonlik, jasorat, zafar bag‘ishlaydi.

O‘zbek bolalar adabiyotining atoqli vakillaridan biri Zafar Diyor ham o‘zining butun ijodiy faoliyatini yosh avlodni insoniylik ruhida tarbiyalash ishiga bag‘ishlab, xilma-xil asarlari bilan o‘zbek bolalar adabiyotini boyitdi. u butun aqli, qobiliyati, qalam kuchini yosh avlodga qaratgan, bolalarning shodlik va tashvishlari, orzu-intilishlarini sezgirlik bilan anglab ko‘ngilga joylagan, dilini dillarga payvand etgandi. „Qo‘shiqlar“,„Mashinist“, „Oantana“, „She’rlar“ (1939), „Muborak“ , „Bizning qurolimiz“, „Bizning oila“ , „Sovg‘a“ „„Chaman“ , „Asarlar“ , „Suv bilan suhbat“ kabi kitoblari bolalarga katta tortiq bo‘ldi.

„G‘unchalar“da shoir bolalarni erkalab:

Vatan agar bo‘lsa bir chaman,

Siz qo‘ynida xandon g‘unchalar.

Ay, siz mening kichik do‘stlarim,

Vataningiz sevar shunchalar, —

deydi. Ammo shu g‘unchalar ona-Vatanimiz asosi ekanligi, bular oldida turgan buyuk ishlar shoir e’tiboridan chetda qolmaydi. She’rni o‘qigan har bir bolada tezroq o‘sib-ulg‘ayish, Vatan xizmatini qilish hissi jo‘sh urmay iloji yo‘q.

Shoirning „Mergan“ she’ridagi qahramon ham orzular qanotida yashaydigan bola. Uning akasi qahramon jangchi, nemis bosqinchilariga qarshi kurash olib borayotgan dovyurak yigit. Lirik qahramon harbiy ishni, mashqni jon dilidan yaxshi ko‘radi, qiziqadi. Mashq qilaverib miltiq ishlatishni, to‘g‘ri mo‘ljalga olishni o‘rgangan. Bolaning ezgu niyati bitta: tezroq ulg‘ayish, ona-Vatanni akasi kabi himoya qilish:

Do‘stlar, o‘sib-ulg‘aysam,

Askarlikka boraman.

Unda mohir kurashchi

Akam o‘rnin olaman.

O‘zbek bolalar she’riyatining yana bir taniqli siymolaridan biri — Quddus Muhammadiy

Quddus Muhammadiy sofdil, a’lochi o‘quvchilarni samimiy sevadi, o‘z she’rlarida bunday bolalarni maqtaydi. „A’lochi Sodiq“, „Sinov“, „Mening orzuyim“, „Bizning uyda“„Yasha, Omon!“, „Besh“, „Solijonning darsxonasi“ va boshqa she’rlari a’lochi o‘quvchilar haqida yaratilganligi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. A’lo o‘qish, mehnatsevarlik va tirishqoqlik bilangina ilm-fanni egallash mumkin ekanligini shoir bu she’rlari orqali bolalar ongiga singdiradi. Quddus Muhammadiy ijodining yana bir muhim qirrasi hajv va yengil kulgi bilan bog‘liq. „Nomsiz erkatoylar haqida“, „Dum“, „Ahmadjonga uyat“, „Lapashang“, „Ravshanjonning qo‘li tilga kirdi“ kabi ko‘plab she’rlarida bolalar fe’lidagi yomon odatlar ayovsiz tanqid qilinadi

Keling, bolalar,Yeling, bolalar,Aka-opalar,Hamma bolalar.Kim bo‘lsa bo‘lsin,Safimiz to‘lsin.Ekamiz ko‘chat,O‘tmasin fursat.Mayli mevali,Mayli uzum bog‘,Yong‘oq — mag‘iz yog‘.

Quddus Muhammadiy yosh kitobxonlar qalbida tabiat va inson kuychisi sifatida barhayot yashaydi.

Bolalar uchun asarlar yaratishdek sermashaqqat va qutlug‘ ishgan umrini bag‘ishlagan ijodkorlar qatorida Ilyos Muslim nomini tilga olmasdan ilojimiz yo‘q.

Uning „Turnalar“, „Bizning maktab“, „Sening sovg‘ang“, „Tillaqo‘ng‘iz“, „Ishchan asalarilar“, „Oylar aytishuvi“, „Oyxon va rayhon“, „Ko‘rik“, „Birinchi sovg‘a“ kabi kitoblari o‘zbek bolalar adabiyotining rivojiga barakali hissa bo‘lib qo‘shildi. Bu to‘plamlar yosh kitobxonlarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasida yetakchi rol o‘ynab kelayotir.

Shoirning „Eshmatvoyning qilig‘i“, „Yomon odat“, „Befahm Eson“, „Xolcha bilan olcha“, „Mashmasha“, „Grippdan kim qochadi?“ singari yumoristik asarlarida ishyoqmas, dangasa, lapashang bolalarning kamchiliklari, nuqsonlari ochib tashlanadi. “Sening sovg‘ang” she'rida esa mehnatsevar qizaloq tasviri ustalik bilan chiziladi:

Jajjigina barmoqchalaring

Harakatdan to‘xtamas bir zum.

Sen chizgan gul, bayroqchalaring

Bayram uchun sovg‘adir, qizim!

Ishni har kun olib yoningga,

Zehn qo‘yib kashta tikasan.

Endi bilsam, onajoningga

Bayram kuni sovg‘a etasan

Shukur Sa’dulla ham kichkintoylarga zavq-shavq beruvchi bir qator she’rlar yozgan. Qirq yildan ortiqroq hayotini badiiy ijodga bag‘ishlagan san’atkorning „Uch ayiq“, „Ayyor chumchuq“ , „Yoriltosh“ , „Ikki sandiq“ , „Sen nima qilding?“, „Shohista“, „Shirin kun“ , „She’rlar“ , „She’r va ertaklar“, „Dastyor qiz“, „Sening alboming“ , „Ozoda“, „Komandirning boshidan kechirganlari“ , „Kachalpolvon“ , „Ism qo‘yilmagan xat“, „Sening bayraming“, „Mening aziz bolalarim“ va boshqa kitoblari bosilib chiqdi.

Shukur Sa’dullaning „Yomg‘ir yog‘aloq“ she’rida yomg‘ir ona tabiatni gulga burkashi bilan birga, ekin-tekinlar uchun ham koni foyda ekanligini yosh kitobxon qalbiga yetib boradigan darajada quvnoq va sho‘x misralarda ifodalaydi:

Yomg‘ir yog‘aloq, Chiqar kamalak.

Yam-yashil o‘tloq, Yomg‘irdan foyda

Endi ekinlar. Maysaga, donga.

Chiqarar quloq... Yurt serob bo‘lar

Yomg‘ir tinganda,. Oq bug‘doy, nonga.

Shoir Po‘lat Mo‘min o‘zining bir qator asarlari bilan axloq va odob kuychisi hisoblanadi. Bu g‘oya ko‘proq „Birovlar“, „Bir odamning afsusi“, „So‘zi shunaqa — o‘zi shunaqa“, „Behzodni bilasizmi?“, „Ulg‘aydimi aqlingiz?“, „Qo‘ling oltin — yo‘ling oltin“, „Birinchi bo‘l, birinchi“ kabi she’r va qo‘shiqlarida ochib beriladi.

Po‘lat Mo‘minning „Alla bilan Jalla“, „Ziyrak fil va ziqna boqqol“, „Har kimniki o‘ziga, oy ko‘rinar ko‘ziga“, „Unutgan o‘g‘il“, „Oltin nay“, „Dono bola“, „Bilganni qari — bilmaydi pari“ singari ertak-dostonlarida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangani ko‘rinib turadi.

Oftob yaxshimi,

Odob yaxshimi?

Oftob berar nur,

Odob-chi — huzur.

Lolalar uchun

Oftob yaxshidir,

Bolalar uchun

Odob yaxshidir

Anvar Obidjon „Ona Yer“ , „Bahromning hikoyalari“ , „Ey, yorug‘ dunyo“ , „Olovjon va uning do‘stlari“, „Ketmagil“, „Bezgakshamol“, „Masxaraboz bola“, „Akang qarag‘ay Gulmat“, qiziq voqea“ , „Oltin yurakli Avtobola“ , „Dahshatli Meshpolvon“ , „Yerliklar“ , „Alamazon va Gulmat hangomasi“ , „Ajoyibxona“, „Meshpolvonning janglari“, „Alisher ila Husayn yoki uch dono va o‘g‘ri“, „Oltiariq hangomalari“ , „Bulbulning cho‘pchaklari“ , „Odobli bo‘lish osonmi?“, „O‘q o‘tmas bolakay“, „O‘g‘irlangan pahlavon“ kabi to‘plamlari nashr etilgan.

Kalamushvoy, Yoz desalar

Kalamush. „Temir“ deb,

Savoding sal. Sen yozibsan

Chalamish. „Kemir!“ deb.

Anvar Obidjonning qissa va hikoyalari, asosan, yumorga yo‘g‘rilgan bo‘lsa-da, o‘z zamonasi dardlarini bolajonlarga sodda va ta’sirchan ifodalar orqali yetkazib bera olishi bilan e’tiborga loyiqdir.

Quyida keltirilgan adiblar ijodidan qisqacha namunalarni ko‘rib chiqdik. Ma'lum bo‘ldiki, bolalar adabiyotiga oid asarlar talaygina. Ammo, shoirlar ijodiga qiziquvchilar va o‘rganuvchilar soni anchayin kam. Bizga yangi asarlar va ularni targ‘ib qiluvchilar kerak. Televideniyalardagi “yengil hazm bo‘luvchi”tomoshalarni kamaytirib, she'riy uslubda yozilgan ertaklardan mult tomoshalarni ko‘paytirish kerak. Ijtimoiy tarmoqlardagi o‘yinlarnlardan yiroqlashib, qiziqarli she'rlar mashq qilishlariga sharoit yaratib berish, ularni eng sara namunalar bilan tanishtirish darkor. Zero, murg‘ak qalb vaqtida, she'riyat bilan sug‘orilsa, bunday boladan hech qachon yomonlik chiqmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamasoli Jumaboyev. “Bolalar adabiyoti” „O‘qituvchi“.Toshkent — 2010
2. R. Mirzayev “Kitobim – Oftobim”